

GLOSSARIY

№	ENGLISH	O'ZBEKCHA	
1	A relation	Munosabat	
2	Reflexive relation	Refleksivlik munosabati.	Agar $\forall x \in A$ uchun xRx bo'lsa, R –binar munosabat <u>refleksiv</u> munosabat deyiladi
3	Symmetric relation	Simmetriklik munosabati	Agar xRy bo'lishidan yRx bo'lishi kelib chiqsa, $R^{-1} = R$ shart bajarilsa, <u>R-simmetrik</u> munosabat deyiladi
4	Linear ordered set	<u>qisman tartiblangan to'plam</u>	Agar R - qisman tartib munosabati bo'lsa, (A, R) <u>qisman tartiblangan to'plam</u> , R chiziqli tartib munosabati bo'lsa, (A, R) <u>chiziqli tartiblangan to'plam</u> deyiladi.
5	Completely ordered set	To'la tartiblangan to'plam	Har qanday bo'sh bo'lmagan to'plamostisi minimal elementga ega chiziqli tartiblangan to'plam <u>to'liq tartiblangan to'plam</u> deyiladi.
6	Equivalence relation	<u>ekvivalentlik munosabati</u>	<u>Refleksiv, simmetrik va tranzitiv bo'lgan binar munosabat</u> <u>ekvivalentlik munosabati</u> deyiladi
7	Binary relation	Binar munosabat	$A \times B$ ning ixtiyoriy qism to'plamiga binar munosabat deyiladi
8	Inverse of Binary Relation	teskari munosabat deyiladi	Agar R – ikki o'rinli, ya'ni binar munosabat bo'lsa, u holda $\{(a, b) / \forall (b, a) \in R\}$ munosabat R^{-1} -munosabatga teskari munosabat deyiladi va R^{-1} orqali belgilanadi.

			R^{-1} munosabat R ning <u>inversiyasi</u> deyiladi.
9	Factorizing a set	To'plamni faktorlash	A to'plamning bo'sh bo'lmagan to'plamostilaridan tuzilgan $B = \{A_\alpha / \alpha \in \Omega\}$ to'plam berilgan bo'lsin. Agar B ixtiyoriy ikkita elementining kesishmasi bo'sh to'plmadan iborat bo'lib, B ning barcha elementlarining yig'indisi A ga teng bo'lsa, u holda B to'plam A to'plamning <u>bo'laklangani</u> deyiladi.
10	An ordered set	<u>tartiblangan to'plam</u>	A to'plamda R - tartib munosabat berilgan bo'lsin, (A, R) juftlik <u>tartiblangan to'plam</u> deyiladi.
11	Composition of binary relations	Binar munosabatlarning kompozitsiyasi	P va Q binar munosabatlar bo'sh bo'lmagan A to'plamda berilgan bo'lsin. U holda $P \circ Q = \{(a,c) / \exists b \in A, (a,b) \in Q \wedge (b,c) \in P\}$ to'plam P va Q binar munosabatlarning <u>kompozitsiyasi</u> deyiladi.
12	Unary relation	Unar munosabat	Bir o'rinli munosabat esa A ning ixtiyoriy to'plamostisi bo'lar ekan. Bir o'rinli munosabat <u>unar munosabat</u> deyiladi.
13	Transitivity relation	<u>Tranzitivlik</u> munosabat	Agar xRy va yRx bo'lishidan xRz bo'lishi kelib chiqsa, ya'ni $R \circ R \subset R$ shart bajarilsa, <u>R-tranzitiv munosabat</u> deyiladi;
14	Equivalent class	<u>Ekvivalentlik sinfi</u>	A to'plamda

			aniqlangan R-ekvivalentlik munosabati berilgan bo'lsin. $\forall a \in A$ uchun \bar{a} orqali A to'plamning a ga ekvivalent bo'lgan barcha elementlarini belgilaymiz va to'plamni a element yaratgan <u>ekvivalentlik sinfi</u> deb ataymiz.
15	Larger than	Dan katta	
16	Smaller than	Dan kichik	
17	A sign	Belgi	
18	An element	Element	
19	A subset	Qism to'plam	
20	Whole number	Butun son	

